

**ODAM ANATOMIYASI FANINI O'QITISHDA KEYS-STADI METODIDAN
FOYDALANISH****Ruziqulova N.A.***Samarqand davlat tibbiyot universiteti***Bozorova U.B.***Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kattaqurg'on filiali*

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar darslarda fanlararo bog'lanishni, mavzularning mazmun mohiyatini chuqur tahlil etishni, mustaqil o'z ustida ishlab, egallagan bilimlarni yuzaga chiqarishni, vaziyatga qarab tadbiiq etishni shakllantiradi. Dars jarayonini innavotsion texnologiyalar bilan rejalashtirish, o'quvchilarni fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish, mashg'ulotni doimiy tahlil etib borish kutilgan va samarali natijaga erishish zarurdir. Bunday texnologiya o'quv jarayonini toliq nazorat qilish imkoniyatini beradi. Bunda mantiqan bog'langan qisqa vazifalar ketma-ketligi ta'lim jarayoninig algoritmini hosil qiladi. O'quvchi va o'qituvchi faoliyatining shunday algoritm asosida tashkil qilinishi ko'zda tutilgan maqsadga erishishni kafolatlaydi. KEYS-STADI metodi aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi. Ushbu metod dastlab 1920 yilda Garvard biznes maktabida qo'llanilgan. XX asrning 50 yillaridan boshlab biznes-keyslar G'arbiy Evropa mamlakatlarida ommalashdi.

Umumiy tarzda keys-stadi texnologiyasining mohiyati quyidagicha izohlanishi mumkin: ushbu texnologiya vositasida tinglovchi (tinglovchi)ga real hayotiy vaziyatni anglash taklif etiladi, ayni paytda bu vaziyatning tavsifida nafaqat u yoki bu amaliy muammo, balki shu muammoni echish natijasida egallanishi zarur bo'lgan bilimlar kompleksi aktuallashishi ham kuzatiladi. Ta'kidlash joizki, muammoning o'zi mohiyatan echimga ega bo'lmaydi. Keys-stadi interaktiv ta'lim metodi sifatida tinglovchilar tomonidan eng afzal ko'riladigan metodlar qatoriga kiradi. Keyslar metodi o'qituvchining tafakkur turi sifatida, alohida paradigma ko'rinishida gavdalanib, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, noan'anaviy tarzda fikrlash imkoniyatini beradi.

"Odam anatomiyasi" fanning maqsadi odam organizmining shaklini, tuzilishini, uning rivojlanish jarayonini o'rgananishdan iboratdir. Bu fan har a'zoni jinsiy tafovutlar jihatidan, shunindek atrof-muhitning a'zolar tuzilishi hamda vazifasiga bo'lgan ta'sirini o'rganadi. "Odam anatomiyasi" fani odam organizmining tuzilishini o'rganishda nazariy va amaliy masalalarni hal etib, biologiyaniig ayrim yo'nalishlarini rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. "Odam anatomiyasi" odamning

morfologiyasi, organlar tizimining topografiyasi, organlar tizimiga tashqi muhitning taʼsirini oʻrganish hamda turli hayotiy tizim tuzilishiga tegishli muhim umumbiologik muammolarni hal qilishda markaziy oʻrinlarda turadi. Tibbiyotda va amaliyotda “Odam anatomiyasi” fanining uslub va yutuqlaridan keng foydalaniladi. Talabalar odam organizmining tuzilishini oʻrganish asosida organizmdagi organlar tizimining tuzilishi, ularning topografiyasi masalalarini oydinlashtirishda ushbu fanning ahamiyati juda katta ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Odamning qon tomirlar tizimini angiologiya boʻlimi oʻrganadi. Angiologiya boshqa biologik fanlar, xususan, fiziologiya, gigiena va tibbiyotda kardiologiya fanlari bilan uzviy bogʻliqdir. Sogʻlom hayot tarziga ega boʻlmagan kishilarda turli yurak-qon tomir kasalliklar: ateroskleroz, gipertoniya, insult, infarkt kabi kasalliklar kelib chiqadi. Bu kasalliklar odam organizmi uchun xavfli kasallik hisoblanib, odam hayotiga xavf soladi. Talabalarga bu kasalliklarni yuzaga keltiradigan omillar, gigiena qoidalari, kasallikni profilaktikasi haqida bilim va koʻnikmalarni berish yuzaga keladigan yurak-qon tomir kasalliklarning oldini olish uchun xizmat qiladi. Quyida qon tomirlar tizimi - Angiologiya mavzusi yuzasidan KEYSlar keltiriladi:

1. Qoʻyidagi belgilar yurakning qaysi kasalligining belgilari?

Keys boʻyicha savollar:

1. Kuchli va toʻsatdan holsizlanish, oyoq-qoʻllarning jonsizlanishi, bosh aylanishi, harakat koordinasiyasining yuqolishi

2. Kungil ayinishi, qayt qilish, vaqtincha kurish qobiliyatining yuqolishi, eshitish va gapirishga qiynalish yoki bu funksiyalarning yuqolishi.

3. Bunday holatga tushgan odamdagi oʻzgarish sabablarini bilish uchun qanday harakatlar qilish kerak?

Kalit:

Bu holat insult oldi holati hisoblanadi. Bunday belgilarga ega odamlarni tezlik bilan harakat qilishlariga yoʻl qoʻymaslik uchun oʻtqaziladi yoki yotqiziladi. Va tezlik bilan kasalxonaga olib boriladi. Bu belgilarning aniq insult oldi belgisi ekanligini tekshirib ham koʻrish mumkin. Buning uchun odamdan jilmayish soʻraladi. Agarda bu insult boʻladigan boʻlsa u ikkala labining chetini koʻtarib tabassum qilolmaydi. Tabassum qiyshiq chiqadi. Undan biror gap masalan “Bugun havo yaxshi ” deb soʻrang javob noaniq boʻlsa demak bu ham insult belgisidir. Bemor kishi ikki qoʻlini bir vaqtda koʻtara olmaydi yoki qisman koʻtaradi.

2. Odam yuragining tuzilishi yoshga va fiziologik xususiyatlarga koʻra farqlanadimi?

Keys yuzasidan savollar:

1. Katta yoshdagi odamlar va yosh bolalarning yuragining yoshga bogliq ajratidigan belgilari qanday?

2. Yangi tugʻilgan bolalarda yurakning shakli qanday boʻladi?

Kalit:

Yurakning holati odamning yoshi, jinsi, gavdasining vaziyati, tana tuzilishiga ham bogʻliq boʻlib, diagfragmaning nafas harakatlari va yurakning qanday ishlashiga

qarab o'zgaradi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda yurak yumaloq shaklda bo'lib, diafragma gumbazi balandroq bo'lganidan ko'ndalang va yuqoriroq joylashadi. 1-2 yoshlarda yurak ko'ndalang vaziyatini o'zgartirib, qiyshiq holatda joylashadi. O'rta yashar odamlarda yurakning uchi V-qovurg'a orasida joylashsa, keksalarda diafragma gumbazi pastga tushganligi sababli VI - qovurg'a oralig'iga tushadi. Ko'kragi keng odamlarda yurak pastroqda joylashadi. Yangi tug'ilgan chaqaloq yuragining bo'lmachalari katta va qorinchalari yaxshi rivojlanmaganligi uchun yumaloq shaklda bo'ladi. Uning ko'ndalang o'lchami 2,7—3,9 sm, uzunligi 3,0—3,5 sm. O'ng bo'lmacha chapdan sezilarli katta. O'ng bo'lmachaning hajmi 7-10 sm³, chapniki 4-5 sm³. Qorinchalar hajmi 8—10 sm³. Taroqsimon va so'ig'ichsimon mushaklar yaxshi bilinmaydi. Paysimon ipchalar nisbatan yo'g'on va qisqa. O'ng va chap qorinchalar miokardining qalinligi bir xil. Epikard yupqa, elastik va kollagen tolalari kam. Epikard osti yog' to'qimasi yaxshi bilinmaydi.

Xulosa qilib aytganda, metod tinglovchilarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o'zlashtirishda hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda mustaqillikka ega bo'lish imkoniyatini berishini mumkin. O'z navbatida vaziyatlarning tahlili tinglovchilarning kasbiy shakllanish jarayoniga kuchli ta'sir o'tkaza olishi, ularning kasbiy jihatdan "ulg'ayishiga" xizmat qilishi, ta'lim olishga nisbatan qiziqish va ijobiy motivatsiyaning shakllantirishi alohida ahamiyatga ega. Keyslar metodi o'qituvchining tafakkur turi sifatida, alohida paradigma ko'rinishida gavdalanib, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, noan'anaviy tarzda fikrlash imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN AADABIYOTLAR:

1. Антипова М.В. Значение кейсов в современной образовательной системе. История возникновения метода, его особенности: функции, принципы, задачи. Типы и жанры. Источники. Виды анализа кейсов : метод. пособие для преподавателей филиала : Мариинско-Посадский филиал ФГБУ ВПО МарГТУ, 2011.

2. Рузикулова Н.А. и др. Особенности преподавания науки паразитологии в медицинских вузах //Web of Medicine: Журнал медицины, практики и сестринского дела. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 64-67.